

MURDARIJA

KIRISH.....	3-6
I BOB. XOLID HUSAYNIYNING HAYOTI VA UNING’’MING QUYOSH SHU’LASI’’ ASARI.....	7-24
1.1. Xolid Husayniyning hayoti va ijodiy faoliyati.....	7-17
1.2. Realiza – madaniyat xususiyatlarini ifoda etuvchi vosita.....	18-24
II BOB. XOLID HUSAYNIYNING’’MING QUYOSH SHU’LASI’’ ASARI DA AFG’ON MADANIYATI TASVIRI.....	25-44
2.1. Xolid Husayniyning ’’Ming quyosh shu’lasi’’ asarida afg’on madaniyatining ochilishi.....	24-33
2.2. Xolid Husayniyning ’’Ming quyosh shu’lasi’’ asarida realiyalar tasviri.....	34-44
XULOSA.....	45-49
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....	50-51

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda islohotlar davrida jamiyat ma'naviyati asosi sanaladigan adabiyotga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda va kitobxonlikka alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" deb nomlangan nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb takidlab o'tganlar. Bu gaplar bejizga takidlanmaganidek, yuksak intellektual, mustaqil fikrlaydigan, dunyo miqyosida o'z tengdoshlarizga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishliklarini takidlab o'tganlar va shunga munosib farzandlar bo'lib kamol topishga umid qiladilar.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev.Sh.M. tomonidan 2019-yil 3-aprel kuni "Yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar"ni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etildi"¹. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus zahirida yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, adabiyotni tahlil qila olish, tegishli xulosalar chiqarish, yoshlar tafakkurini kengaytirish maqsad qilib olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi kitobxonlik madaniyatini oshirish, bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi farmoyish"ida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv

¹<https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>

qo‘llanmalari nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog‘liq aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini qayd etish lozim. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, va kitob mahsulotlari bo‘yicha davlat buyurtmasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko‘rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do‘konlari faoliyatini rivojlantirish, bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar tayyorlanishi haqida qarorlar berildi.

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ‘ibotchilar o‘rtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko‘rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish kabi bir qator qarorlar ishlab chiqilib hozirgi kunda xalqimizda o‘z amaliy isbotini topib kelmoqda.

Mazkur davr adabiyotining o‘ziga xos vakillarida bo‘lgan Xolid Husayniy nafaqat adabiyotidagi, shuningdek, butun dunyodagi kitobxonlarning qalbidan chuqur joy egallagan mashhur yozuvchilaridan bo‘lib, Xolid Husayniy barcha davrlar va xalqlar adabiyotining yagona maqsadi bo‘lmish komil inson g‘oyasi hamda tabiat mavzusi, milliy madaniyat tasviri uning ijodiyotida eng yuqori

o'rinda turadi. Shuning uchun asarning o'rganilishi mavzuning dolzarbligini kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. Xolid Husayniy tomonidan yozilgan "Ming quyosh shu'las" asarini ishimizning asosiy obyekti sifatida ko'rsatiladi. Bitiruv malakaviy ishimizning predmetini asardagi realiyaning tahlili hamda asarda ifodalangan milliy madaniyat tasviri hisoblanadi.

- **Izlanishning maqsad va vazifalari:** Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi: Xolid Husayniyning hayot yo'li, uning "Ming quyosh shu'las" asarida milliy madaniyat tasviri mavzusining o'rni hamda yozuvchining bu mavzuni yoritib berishda foydalangan realiyani aniqlash masalasini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish mo'ljallanadi:
- Xolid Huseynining hayoti va ijodiy faoliyatiga doir manbalarni topish va tadqiq etish;
- Adabiyotda realiya va uning qo'llanilishini o'rganish;
- Yozuvchining "Ming quyosh shu'las" asarida afg'on madaniyatining aks ettirilishini analiz qilish;
- Yozuvchining "Ming quyosh shu'las" asarida realiyaning ishlatishini tahlil qilish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Xolid Husayniy ijodiga qiziqish XX asrda boshlangan. Ingliz adabiyotining taniqli yozuvchilardan Hebegar Alfred, Tomas Jonson va H. Far kabi yozuvchilar o'zlarining maqolalarida hamda asarlarida ilk bor munosabat bildirdilar. Hebegar Alfredning "Xolid Husayniyning hayoti va ijodi" nomli maqolasida. Bir qator tadqiqotchilar asar haqida ilmiy maqolalar yozishgan. Ular: Natasha Walter, John Freeman, Jennifer Reese, Cathleen Medwick, Michiko Kakutani, Christian Yvonne Zipp va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, Xolid Husayniy "Ming quyosh shu'las" asarida milliy madaniyat tasviri va realiyaning tahlili ilk marotaba qalamga olinmoqda.

Shuningdek, Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” asarida afg’on madaniyati namoyon bo’lgan o’rinlarini aniqlash uning yangiligidir.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Xolid Husayniy asarlarida milliy madaniyat mavzusining yoritib berilishi va uning qo’llanishi “Ming quyosh shu’lasi” asarida realiyanning qo’llanishida yozuvchilik mahoratining ifodalanishi, Xolid Husayniyning muammo qo’yish uslubi o’rganilganligi va muayyan xulosalarga kelinganligi ushbu bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyatidir. Undan Xolid Husayniyning hayoti va ijodiga bag’ishlangan kurs ishlarida, xususan, referat yoki bitiruv malakaviy ishlarini yozishda, dars jarayonlarida, shuningdek, yozuvchilarning ijodini o’rganishda foydalanish mumkin.

I BOB. XOLID HUSAYNIYNING HAYOTI VA UNING”MING QUYOSH SHU’LASI” ASARI

1.1. Xolid Husayniyning hayoti va ijodiy faoliyati

Xolid Husayniy 1965-yil 4-martda Afg'onistonning Kobul shahrida besh farzandning eng kichigi bo'lib diplomat oilasida tug'ilgan. Uning otasi Nasser Kobuldagi Tashqi ishlar vazirligida diplomat bo'lib ishlagan, onasi esa qizlar o'rta maktabida fors tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Ikkalasining ham kelib chiqishi Hirotlik bo'lgan. 1970-yilda Husayniy va uning oilasi Eronga ko'chib o'tdilar, u yerda otasi Tehronda Afg'oniston elchixonasida ishladi. 1973-yilda Husayniyning oilasi Kobulga qaytib keldi va Husayniyning eng kichik ukasi o'sha yilning iyul oyida tug'ilgan. 1976-yilda, Husayniy 11 yoshida bo'lganida, otasi Parijda ish topib, u yerga oilasini ko'chirdi. Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi (PDPA) hokimiyatni egallab olgan Saur Revolyutsiyasi bo'lganda, 1978 yil aprel oyida Afg'onistonga qaytish imkoniga ega emas edi. X. Husayniy 1980 yilda, Sovet-Afg'on urushi boshlanganidan ko'p o'tmay, Qo'shma Shtatlarda siyosiy boshpana so'ragan va Kaliforniya shtatining San-Xose shahrida istiqomat qilgan. 15 yoshli Husayniy birinchi marta Qo'shma Shtatlarga kelganida ingliz tilini bilmasdi.

Xolid Husayniy 1980 yilda uning oilasi AQSHga ko'chadi. Shu yerda u tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi. Kollejni bitirgach, Kaliforniya shtatida shifokor bo'lib ishlagan, keyinchalik u yerning fuqarosiga aylangan. U uchta roman, ayniqsa uning 2003 yilgi *The Kite Runner* (Shamol ortidan yugurib) deb nomlangan asari, ularning barchasi hech bo'lmaganda qisman Afg'onistonda va afg'onistonlik qahramon sifatida tanilgan. *The Kite Runner* (Shamol ortidan yugurib) muvaffaqiyatidan so'ng u bir muddat tibbiyotdan voz kechi, u yozuvchilik bilan shug'ullanish uchun nafaqaga chiqdi. Bolaligining sakkiz yilini Kobuldagi Vazir Akbar Xonning o'rta sinfida o'tkazdi. Tajriba haqidagi suhbatlarda u ba'zida Amerika ishg'oli va keyingi urushlardan oldin mamlakatni tark etishga muvaffaq bo'lganlik uchun o'zini aybdor his qiladi. Uning uchta romani eng ko'p sotilgan: “*The Kite Runner*” (Shamol ortidan yugurib) (2003) *The New York Times Best Sellers* ro'yxatida 101 hafta turdi, shundan to'rt haftasi birinchi raqamda sotildi.

"Times Best"jurnalida xabar berilishicha "The Thousand Splendid Suns" (Ming quyosh shu'lası)(2007) bir hafta davomida eng ko'p sotilgan ya'ni 103 marta sotilgan kitob bo'ldi. "Tog'lar ham sado beradi"(2013) romani "Times" ro'yxatining yuqori cho'qqisiga chiqdi va 2014 yil yanvar oyiga qadar ro'yxatda birinchi o'rinni egalladi ya'ni 33 hafta davom etdi.

Xolid Husayniyning kasbi novelist, shifokor. U Amerika Qo'shma Shtatlari fuqaroligini olgan va Santa Clara Universitetida tahsil olgan va u yerdagi San-Diego universitetini ham tamomlagan. Afg'on yozuvchisi Xolid Husayniyning rafiqasi Roya Husayniy bo'ladi.

Husayniy o'z millati haqida shunday dedi: "Men toza emasman ... Mushukning Pashtun qismi, mening tojik qismim." Onasining oilasi, Pashtunlar Mohammadzoda qabilasidan ekanligi taxmin qilingan. Husayniyning singlisi bo'lib uning ismi Raya'y. Xolid Husayniyning fikricha Kobulning o'zi "o'sib borayotgan, o'sib-ulg'aygan, kosmopolit shahar edi".² U yerda muntazam ravishda bir nechta amakivachchalar bilan sayohat qilishgan.

Mamlakatdan uzoqda bo'lishiga qaramay, oilasi, bir qancha do'stlari va qarindoshlari oldida turgan vaziyatlardan xabardor edi. Husayniy quyidagicha tushuntirdi: "Kobulda ko'p tanish oilalar va do'stlarimiz bor ed. 1973-yilda sodir bo'lgan kommunistik to'ntarish, davlat to'ntarishidan farqli o'laroq, juda zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan edi. Bunday kommunistik to'ntarishda odamlar yig'ildi va qatl etildi, ko'plari esa qamoqqa tashlandi. Shubhasiz, qirol oilasi bilan bo'liq bog'langan yoki unga aloqador bo'lgan har qanday jamiyat vakillari quvg'in qilingan, qamoqqa olingan, o'ldirilgan yoki yoqib yuborilgan. Shuning uchun ham biz do'stlarimiz va tanishlarimiz haqida xabar eshitmas edik. Undan ham yomonrog'i ularning oila a'zolari g'oyib bo'lgan. Hech kim ularni qayerda ekanliklarini bilmas edi va ba'zilar qaytib ham kelmagan. Kobulda kommunistlar xotinimning tog'asini yoqtirmasligi sababli uni shunchaki yo'q qilishgan. U juda mashhur qo'shiqchi va bastakor edi. Hozirgi kunga qadar biz unga nima bo'lganini

²Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent, 2014.-B.134.

bilmaymiz. Shunday qilib, biz Ovro'pada ommaviy qirg'inlar va qo'rqinchli hikoyalarni eshitar edik. Demak, bular haqiqat edi.”³ Husayniy shu paytgacha juda ko'p marotaba ijodiy hamkor izlagan edi. Ammo unga hech kim yordam qo'lini cho'zmaydi. Shuning uchun ham Husayniy Tomas Ventga o'zining chuqur minnatdorchiligini izhor etgan holda, ijodining eng sara namunalaridan o'zining maktubida yuboradi. Juda yuqori nafislik va g'ayritabiiylik bilan yozilgan bu xatda biror bir belgi ko'rsatilmagan edi. Ammo Husayniy o'zining ismini konvertning bir chekkasiga bitgan edi. Shuningdek, konvertga o'zining asarlaridan namunalaridan solib yuborgan edi. Husayniyning ijodiy ishlari bilan tanishgan Tomas Vent, uni juda ko'klarga ko'tarib madh etadi. Ammo unga hali biroz muddat ijod bilan shug'ullanishi lozimligi va undan so'ng esa o'zining ijodiy namunalarini nashr qildirishi haqida maslahat beradi. Lekin bu paytgacha uning ijodiy namunalari dunyo yuzini ko'rishga ulgurgan edi. Husayniy o'zining ijodiy namunalarini muxlislar qalbidan joy olishiga ishonayotgani haqida o'zining maktubida bayon qiladi. Shuningdek, Husayniy shuni niyat qiladiki: “Agar shon-shuhrat mening toleyimga yozilgan bo'lsa, bundan qochib qutilishning iloji yo'q. Aksincha bo'lsa ham men ijod qilganimdan hech qachon afsuslanmayman” degan edi. Husayniy Higgenson yuborgan maktublaridan juda ta'sirlanib, o'ziga berilgan ta'rif-tasnif hamda sir-sinoatdan juda ham xursand bo'ladi.

Xolid Husayniy o'ziga shunday ta'rif bergan edi: “Men hozirchalik chumolidek kichkinaman, mening sochlarim ham yo'q. Mening sochlarim kashtan tikanlariga o'xshaydi. Mening ko'zlarim esa billur idishdagi xeres uzumidan tayyorlangan eng oliy navli vinoga o'xshaydi” deb aytgan edi. Shu o'rinda Xolid Husayniy o'zining yolg'izligiga ham alohida urg'u berib o'tadi. Xolid o'zining haqiqiy do'stlari sifatida, ulkan tog' cho'qqilarni, tepaliklarni, quyosh botishini va o'zining iti Karloni tan oladi. Shuningdek, Uning onasi Xolidga yetarli darajada mehribon bo'lmasada va otasi ham biror marta kitob sovg'a qilmagan bo'lsada, o'zining ijodga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini yo'qotmaganligi haqidagi o'zining fikr-mulohazalarida chuqur anduh bilan ta'kidlab o'tadi.

³ Xhaled Hosseini. Interview 2007

Xolid Husayniyning ta'lim jarayoni-Huyasniy 1984-yilda San-Xose shahridagi Mustaqillik maktabi bitiruvchisi bo'lib, Santa Clara Universitetiga o'qishga kiradi va u yerdan 1988 yilda biologiya sohasi bo'yichada bakalavr darajasini oladi. Keyingi yili Kaliforniya shtatida San-Diego tibbiyot fakultetiga o'qishga kirib, 1997 yilda Los-Anjelesdagi Cedars-Sinai Tibbiyot Markazida ichki kasalxonada rezidensiyasini tugatgan. Husayniy prezident Jorj Bush va birinchi xonim Laura Bush bilan birga 2003-yilda, o'zining ilk romanini "The Kite Runner" ("Shamol ortidan yugurib") hikoyasini chiqaradi. Roman Afg'onistond ya'ni, San-Fransisko ko'rfazi hududida, monarxiya qulashidan to Tolibonlar davrining qulashigacha bo'lgan mahalda yozilgan. Xolid Husayniyning ko'pgina mavzularga Xazarlar va Afg'onistondagi Pashtunlar o'rtasida etnik ziddiyatlar, Amir va uning otasining immigratsion tajribalari kiradi. 2004-2005-yillar mobaynida "Master letters" deb nomlangan uchta maktub yo'llaydi. Ushbu maktublarda noma'lum odam qahramon sifatida ta'riflangan edi. Bu qahramon kim ekanligi haqida olimlar o'rtasida fikr-mulohazalar, har xil qarashlar, hamda bahs-munozaralar olib borilgan.

2000-yillarning birinchi yarmida Husayniy ijtimoiy dunyodan butunlay chetga chiqib qoladi. Bu davr Husayniyning hayotidagi eng samarali ijodiy davr bo'ldi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Zamonaviy olimlar hamda izlanuvchilarning fikr-mulohazalariga qaraganda, Husayniyning dunyodan ajralib qolishi hamda yolg'izlik dunyosiga g'arq bo'lishining sababini ikkiga bo'lgan holda talqin qilishganlar. Husayniy o'zining nerv tolalarini shifokorlar ko'rigidan o'tkazgan chog'ida, ya'ni shifokorlarning tekshiruvidan o'tgan paytida unga juda ko'p tashxislar qo'yilgan. Hozirgi davrda ko'pchilik ishonadiki, Husayniy doimiy turli xil kasalliklardan aziyat chekkan. Bunday kasalliklarga misol qilib keng joydan qo'rqish hamda tutqanoq kabilarni keltirishimiz mumkin.

2009-yilning aprel oyida adabiy tanqidchi, yirik yozuvchi hamda sobiq vazir hisoblangan Tomas Vent Higgenson Husayniyga "Yosh ijodkorga maktub" deb nomlangan maktub yo'llaydi. Bu maktubda Husayniyning ham hayotini, ham ijodiy faoliyatini o'zgartirib yuboradigan jummalarni keltirgan edi. "Husayniy siz

yashash tarzingizni o'zgartiring, yangi dunyoni kashf qiling" degan jumlar mavjud edi. Bu so'zlar yozuvchiga ham hayotiy tarzini, ham ijodiy faoliyatini mukammallashtirishga ilhom bag'ishlovchi va ruhlantiruvchi jumlar bo'ldi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Bunday maslahatga muhtoj bo'lgan Husayniy, ijodiy faoliyatini yangilashga qaror qiladi. Husayniy endi Tomasning maslahatlariga ergashgan holda u bilan hamkorlik qila boshlaydi hamda 2004-yilda o'zining eng ajoyib asarlarini nashr qilish to'g'risida o'ylay boshlaydi. Husayniy yana shuni ham anglaydiki, muhlislarsiz yozuvchi hech kim emasligini va ijodiy faoliyating yanada ko'klarga parvoz qilishi ham aynan muxlislarga bog'liq deb hisoblaygan. Husayniy shu paytgacha juda ko'p marotaba ijodiy hamkor izlagan edi. Ammo unga hech kim yordam qo'lini cho'zmaydi. Shuning uchun ham Husayniy Tomas Ventga o'zining chuqur minnatdorchiligini izhor etgan holda ijodining eng sara namunalaridan o'zining maktubida yuboradi. Juda yuqori nafislik bilan g'ayritabiiy bu xatda biror bir belgi ko'rsatilmagan edi. Ammo Husayniy o'zining ismini konvertning bir chekkasiga bitgan edi. Shuningdek, konvertga o'zining asarlaridan namunalaridan ham solib yuborgan edi.⁴

Nilsen BookScan-ga ko'ra, roman AQShda 2005-yilning eng yaxshi asari bo'lgan .” Kite Runner” asari ko'plab kitobxonlar tomonidan o'qilgan hamda audiobook sifatida ham ishlab chiqilgan. “Kite Runner” 2007 yilning dekabrda chop etilgan xuddi shu nomdagi filmga moslashtirildi. Husayniy bu filmدا: samolyot sotib olayotgan Amir va keyinchalik Sohrab bilan birgalikda uchirib o'ynagan varrakni sotib olayotganda ya'ni filmning oxirigacha yonida rameo ko'rinishida, va ba'zan esa shunchaki tomoshabin sifatida ko'rinish berdi.

Husayniyning ikkinchi romani, "The Splendid Suns" (Ming quyosh shu'lası) 2007-yilda nashr etilgan va Afg'onistonda ham o'qilgan. Maskur asar dunyoning qirqdan ortiq tillarida 10 million nusxada nashr qilingan. Bu kitob asar asosida Gollivud kinoijodkorlari film ham suratga olishgan. Bu hikoyada Husayniy bir qancha masalalarga ayniqsa, u ayollarga nisbatan ko'proq e'tibor

⁴ Jumayeva S. Adabiyotshunoslik asoslari. Navoiy: 2008.-B.56.

qaratgan. Husayniy asarda ikki ayolning hayoti, Mariam va Layloning hikoyasi bayon qilinadi. Bu hikoya Afg'onistonning o'ttiz yillik shov-shuvlaridan Sovet bosqinchiligidan to Tolibonlar va Tolibonlardan keyin qayta qurishga o'tish davriga moslab yozilgan roman hisoblanadi. Roman 22-iyul, 2007-yil, "Riverhead Books" tomonidan "Simon & Shuster" audiobooki bilan bir vaqtning o'zida chop etilgan. Film huquqi prodyusser Scott Rudin va Columbia Pictures tomonidan sotib olingan.⁵

2013-yil 21-may kuni Husayniy ozod qilindi va quydagi misralarni tilga olib shunday dedi: "Men doimiy ravishda oilamga yozuvchiligimni takrorlovchi markaziy mavzusi sifatida oilamni jalb qilaman. Mening dastlabki romanlarim otalik va onalik hikoyalari hisoblangan. Mening yangi romanim, ko'p satrlarda oilaviy munosabatlarni, birodarlar va opa-singillarning munosabatlari haqida bo'lgan, shuningdek ular sevgan mavzularda sevgi, xiyonat, hurmat va bir-biriga qurbonlik qilish kabi mavzularni yoritishga harakat qildim".

Husayniy hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qochoqlar Bo'yicha Oliy Komissarligi uchun yaxshi niyat elchisi hisoblanadi. Afg'onistonda Xolid Husayniy Jamg'armasi tomonidan insonparvarlik yordamini ko'rsatishga harakat qilmoqda. Jamg'armaning kontseptsiyasi Afg'onistonga safar qilib, 2007-yilda BMTning Qochqinlar ishlari bo'yicha Oliy Komissarligi bilan ishlash nazarda tutilgan.

Xolid Husayniy bolaligida juda ko'p fors poeziyasini, ayniqsa, so'fiylar, Rumiy, Hafiz, Umar Xayyom, Abdulqodir Bedil va boshqalarning she'rlarini o'qigan. Keyinchalik u Hafiz, Divan-e-Xafesning sevimli kitoblarini to'playdi. U shuningdek Jek Londonning "Oq kema" asarining fransuzcha tarjimasini o'zining yosh tasavvuriga sig'dira olish maqsadida u asarni mutolaa qiladi. Shuningdek, "Alisaning ajoyib mo'jizalari", Mayk Hammer seriyasiga mansub bo'lgan romanlarning fransuzcha tarjimalariga asosiy e'tibor ko'rsatgan.

⁵ Jumayeva S. Adabiyotshunoslik asoslari. Navoiy: 2008.-B.56.

U Afg'onistonlik qo'shiqchi Ahmad Zohirni asosiy musiqiy obrazga aylantirdi. U Zohirni "afg'on Elvis" deb ataydi va uning musiqasi "Afg'onistondagi vaqtimning xotiralaridan biri" deb nomlanganligini aytadi.

U Afg'onistonlik qo'shiqchi Ahmad Zohirni asosiy musiqiy ta'sirga aylantirdi. Husayniyning ijodiy namunalari bilan tanishgan Tomas Vent uni juda ko'klarga ko'tarib madh etadi. Ammo unga hali ozgina ijod qilganidan so'ng, o'zining ijodiy namunalarini nashr qildirishi lozimligi haqida maslahat beradi. Lekin bu paytda uning ijodiy namunalari dunyo yuzini ko'rishga ulgurgan edi. Husayniy o'zining ijodiy namunalarini muxlislar qalbidan joy olishiga ishonayotgani haqida o'zining maktubida bayon qiladi. Shuningdek, Husayniy shuni niyat qiladiki: "Agar shon-shuhrat mening toleyimga yozilgan bo'lsa, bundan qochib qutilishning iloji yo'q. Aksincha bo'lsa ham men ijod qilganimdan hech qachon afsuslanmayman"⁶ degan edi.

Husayniyning "bolalik davridagi xotiralari" Afg'onistonning tinch davrida va Afg'onistonning Xazara xalqiga bo'lgan shaxsiy tajribalari dastlabki "The Kite Runner" romanini yozishga olib keldi. Shuningdek, Xolidga uning onasi yetarli darajada mehribon bo'lmasada, uning otasi biror marta unga kitob sovg'a qilmagan bo'lsada, ijodga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini yo'qotmaganligi haqidagi o'zining fikr-mulohazalarini chuqur anduh bilan ta'kidlab o'tadi. Xolid Husayniy uchinchi sinfda bo'lganida, u o'qib, yozish uchun Xanni o'rgangan. Husayniyning ushbu munosabatlarga bag'ishlangan xotiralari, "Kite Runner"daki Hasan va Amirning munosabat bilan uyg'unlashtirgan hisoblanadi.

Uning shaxsiy hayotiga to'xtalsak, Husayniy Roya Husayniy bilan turmush qurgan. Er-xotinning ikkita farzandi bor. Ularning ismi Haris va Farah. Haris muvaffaqiyatli ma'ruzachi bo'lgan. Uning darajasi milliy darajada hisoblanadi. Haqiqatdan ham Oratory'da g'alaba qozonib, 2017 yilgi NSDA milliy chempionatida uchinchi o'rinni egallaydi. U oilasi bilan Shimoliy Kaliforniyada yashaydi. U ingliz tilida, shuningdek, ona tilida ham yaxshi muloqotga kirisha olardi. Husayniyning ijodiy faoliyatiga qiziqishi hamda doimiy qo'llab-quvvatlashi

⁶ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2010.-B.99.

unga ulkan ruhiy ko'mak berar edi. Ko'p yillar o'tgandan so'ng, Xolid Higgensonga 2003-yilda uning hayotida ulkan burilish sodir qilishda yordami beqiyos ekani haqida ta'kidlaydi. Bu vaqtda Xolid Husayniy juda chuqur ruhiy iztirobda bo'lib, bunday og'ir paytida Higgenson unga juda katta ruhiy madad beradi. Xolid Husayniy va Higgenson o'zlarining vafotiga qadar doimiy maktub orqali muloqot qilib turganlar. Ammo Husayniyning adabiy qarashlarini ifodalashda duch keladigan qiyinchiliklar hamda boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamasligi, Higgensonni juda hayratda qoldirgan. Xolid Husayniy Higgensonga ko'pgina ijodiy namunalarini nashr qildirishga ham ruxsat bermaydi. Husayniyga o'zining ijodiy namunalarini chop ettirish imkoniyati juda kam bo'lganligi juda ko'p ta'kidlangan.

Adabiy tanqidchi Edmund Vilson "Urush davridagi adabiyot"ga o'zining fikr-mulohazalarini bildirganda Xolid Husayniyning ijodi haqida ham juda iliq fikr-mulohazalarni keltirib o'tadi. Edmund Vilson Husayniyning ijodiy namunalarida insonni ruhlantiradigan, hayotga bo'lgan muhabbatni oshiradigan lavhalar juda ko'pligini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Rustam Jabborov o'zbek tiliga tarjima qilgan "Ming quyosh shu'las"i" markazida esa Afg'onistonni larzaga solgan fojealar qurboniga aylangan ikki ayol taqdiri yotadi. Mariyam nikohsiz onadan tug'ilib, "haromi" tamg'asi bosilgan shu bilan birga juda yoshligida o'zidan ancha katta kosibga turmushga uzatilgan, og'ir uqubatlarni boshidan o'tkazgan baxti qarolardan hisoblangan. Asarning ikkinchi bir qahramoni Laylo esa aksincha ahil oilaning suyukli bir farzandi hisoblanadi. Ularning baxtiyor hayot kechirish orzulari o'rtasida biror bog'liqlik yo'q, chunki o'zlari turli dunyoga mansublardirlar. Agar urush bo'lmaganida ular to'qnash kelishi amri mahol edi. Ammo xalq boshiga tushgan og'ir sinov davrida Laylo va Mariyam bir-biriga juda bog'lanib qoladilar. Lekin o'zlari kimligini – bir-biriga dushmanmi, dugonami yoki opa-singilmi bilishmaydi. Ular ro'y berayotgan fojealar ro'parasida yolg'iz, nochor edilar. Ammo birgalikda azob-uqubatlarni yengib o'tadilar, baxt ahyon-ahyonda bo'lsa ham ularga kulib boqadi... "Ming quyosh shu'las"i" Afg'onistondagi urush dahshatlaridan yurakni ezadigan, ammo qora kunlar ortidan

muqarrar ravishda quyosh charaqlab chiqishiga umid qilishga undaydigan hayot ta'sirchan asardir. Asar qahramonlari zulmat ichida yashasalar ham o'zlarining insoniy qiyofalarini yo'qotishmaydi. Afg'onistonda davlat to'ntarilishi sodir bo'lishi oqibatida Husayniy oilasi bilan vataniga qaytish imkoniyatidan mahrum bo'lgan va ular AQShdan siyosiy boshpana so'rashga majbur bo'lgan. Bu yerda bo'lajak yozuvchi Santa-Klara va Kaliforniya universitetlarida tibbiyotni o'rgangan. Universitetni tugallaganidan so'ng biroz vaqt o'z ixtisosligi bo'yicha ishlagan, keyin esa Sharq tamadduni, xususan Afg'oniston tarixi bilan bog'liq romanlar yoza boshlagan.⁷ "Ming quyosh shu'lasi"ga o'xshash qo'lyozma keng qamrovli tarzda qayta ko'rib chiqilishi kerak edi. Husayniy, oxir-oqibat bu kitobni besh marta to'ldirmasdan yozganligini e'lon qildi. Romanning kutilgan nashri birinchi marta 2006 yil oktyabr oyida e'lon qilindi. Roman "oilada, do'stlikda, imonda va sevgida topiladigan najot" haqida hikoya qilinganligi ham takidlangan. Bunda shafqatsiz sevgi, yurakni bezovta qiladigan vaqt, do'stona munosabatlar asarning muvaffaqiyat kalitidir.

Adibning, ushbu to'plamdan joy olgan, Rustam Jabborov tomonidan tarjima qilingan "Shamol ortidan yugurib..." romanida do'stlik va sadoqat, sotqinlik va bu aybni yuvish mashaqqati g'oyat ta'sirchan tasvirlangan. Asar qahramonlari Amir va Hasan do'st bo'lishadi, biroq oralarida ulkan jardek farq bor. Amir Afg'oniston aholisi ko'pchiligini tashkil qiladigan pushtun, mahalliy zodagonning farzandi, Hasan esa hazoriylar tomonidan kamsitib kelinadigan oilaning farzandidir. Buning ustiga Amirning otasi ko'rinishi ko'rkam va el-yurtda nufuzli inson, qirol Nodirshoh bilan to'yida tushgan rasmi qasrining mehmonxonasida osig'lik turardi. Xolid Husayniy yozuvchilik faoliyati bilan bir qatorda Birlashgan Millatlar Tashkilotining qochqinlar bo'yicha xodimidir. Bu vazifada u afg'onlarga, birinchi navbatda afg'on bolalariga insonparvarlik yordami ko'rsatib kelmoqda. Xolid Husayniy Afg'onistonga insonparvarlik yordami ko'rsatish bo'yicha o'z jamg'armasini ham tashkil etgan. "Ming quyosh shu'lasi"ga o'xshash qo'lyozma keng qamrovli tarzda qayta ko'rib chiqilishi kerak

⁷Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2010.-B.99.

edi; Husayniy, oxir-oqibat bu kitobni besh marta to'ldirmasdan yozganligini e'lon qildi. Romanning kutilgan nashri birinchi marta 2006 yil oktyabr oyida "oilada, do'stlikda, imonda va sevgida topiladigan najot" haqida hikoya qilinganligi e'lon qilindi. Bu shafqatsiz, yurakni bezovta qiladigan vaqt, do'stona munosabatlar va buzilmas sevgi –katta ruhdagi muvaffaqiyatdir. Afg'onistonlik amerika yozuvchi Xolid Husayniyning 2007 yilgi romani sifatida qaraladi. Uning ilk romani «Shamol ortidan yugurib» AQShda yangi asrning bestseller asariga aylanadi. Mazkur asar dunyoning qirqdan ortiq tillarida 10 million nusxada nashr qilingan. Bu kitob asosida Gollivud kinoijodkorlari film ham suratga olishgan. Bu yozuvchining asarlari tez o'qiladi, ammo shunchaki o'qib ketilavermaydi. Kitobxon qahramon bilan yashaydi, ba'zida qahramonlar taqdiriga sovuqlik bilan yondoshishi muallifga nisbatan g'azab uyg'otsa-da kitobni tashlab qo'yolmaysiz. Asar afg'on zaminida o'tgan tinimsiz urush, qirg'inbarotlar davridagi taqdirilar haqida hikoya qiladi. Kitob Maryam so'zi bilan boshlanib Maryam bilan tugaydi. "Haromi" tamg'asi bilan tug'ilgan Maryam har bir o'quvchida achinish hissini, insoniy og'riqlarni uyg'otadi. Maryamning o'zi orzu qilib yetolmagan farzand kulgusiday baxtni kundoshi Laylo tuxfa etgan. Kundoshi Layloning baxti uchun o'zini qurbon qilishi har qanday odamni yuragini larzaga keltiradi. Laylo va Tariqning sof muhabbatining (istisno bilan) baxtli nihoyasi kishiga taskin beradi. Bir so'z bilan aytganda ajoyib asar. O'zbek kinoijodkorlari tomonidan ishlangan "O, Maryam, Maryam" filmi shu asar asosida suratga olingan. Lekin kino asardan qahramonlar xarakteri va ayrim voqealar rivoji jihatidan ancha farq qiladi. Amerikalik afg'on yozuvchisi Xolid Husayniyning Afg'onistonning kechagi va bugungi hayotini, Afg'oniston ayollarining ayanchli qisimatlari haqida hikoya qilinuvchi 3 xil turdagi dunyoga mashhur asarlari:

«Ming quyosh shulasi», «Shamol ortidan yugurib», «Tog'lar ham sado berdi» kabi romanlaridan tarkib topdi.

Bu kitoblar aynan qaysi jihati bilan kitobxonga yaqin? Husayniy asarlari orqali biz o'quvchilarga nimalarni eslatmoqchimiz, ularga nima demoqchimiz? Siz bilan biz

yashayotgan mana shu zamin, shu yurt hammamizning qadr-qimmatimiz, nomus-orimiz, sha'nimiz, g'ururimiz va eng muhimi o'zligimizni himoya qiladi.

Siz bilan bizdan uncha uzoq bo'lmagan yurt farzandlari ham o'zlari haqida, vatanlari haqida shunday so'zlarni tinglashga il-haq, Ammo Afg'oniston diyorida bir necha o'n yillardan beri davom etib kelayotgan qonli urushlar millionlab insonlar taqdirini o'zgartirib yubordiki, chiroyli hayot haqidagi so'zlar ular uchun orzu bolib qoldi. Mana shunday urushlarga guvoh bo'lgan Xolid Husayniy ko'rgan-kechirganlarini, qalbini larzaga solgan voqealarni qahramonlari timsolida jonli gavdalantirdi. Qo'lingizdagi kitob orqali siz mana shunday taqdir egalari bilan tanishasiz, ularga hamdard bo'lasiz.

1.2. Realia – madaniyat xususiyatlarini ifoda etuvchi vosita

Faqat ma'lum xalq turmush tarziga, dunyo qarashiga, narsa va predmetlarni atashdagi o'ziga xos xususiyatlar, tushunchalar boshqa xalqlarnikidan farq qiladi. Bunday o'ziga xosliklar shu xalqning tafakkur qilish shakli, xatti-xarakatlari, kiyinish rusumlari, ovqatlanishlari, urf-odatlar va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Natijada faqat shu xalqqa tegishli bo'lgan turli xil tushunchalarni ifodalovchi so'zlar vujudga keladiki, bu so'zlar anglatgan tushunchalar o'zga xalqlar tilida mavjud bo'lmaydi.

Tilshunoslikda, tarjimashunoslikda bunday so'zlarni «realiyalar», «xosso'zlar» deb qabul qilingan.⁸ Realialarning aniq ta'rifi, ularning «atama»lardan farqi, boshqa tillarga tarjima qilishdagi o'ziga xosliklar, ular ifodalaydigan leksik, semantik, stilistik funksiyalar haligacha tilshunos va tarjimashunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinayapti. Realialar ifodalagan milliy o'ziga xoslik, uni tarjimalarda berish masalasi rus va o'zbek olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlariga mavzu bo'lgan. Realia maxalliy, milliy koloritni ifodalovchi so'z sifatida va ularni tarjimalarda berish ilk bora o'tgan asrning 50 yillarida rus olimlarining diqqat e'tiborini torta boshladi. L.Sobolev o'z navbatida «asardagi xar bir personaj o'zining milliy qiyofasini fikrlashlarida, xatti-xarakatlarida namoyon qiladi» deb ta'kidlab o'z maqolasida milliy koloritni ifodalovchi so'zni «realiya» atamasi bilan izohlagan. Hozirgi paytda realiyalar atamalar, ekvivalentsizlik bilan amalda bo'lgan leksika, ekzotik, leksika, begona so'z (ino yazыchnыe vkraplenie), varvarizm, lokalizm, etnografizm, lacuna kabi tushunchalar bilan sinonim sifatida ishlatilib kelinayotganligi ma'lum bo'layapti. Darhaqiqat o'zbek tiliga rustili va bevosita kirib kelgan inglizcha grin – xoll, uikend, gudbay, hello, futbol, volleybol; fransuzcha buduar, lornet, syurtuk, jurnal, fikr va xokazo so'zlar allaqachon o'zlarining ekzotik darajasini yo'qotib, o'zlashtirma so'zlarga aylangan. Juda ko'p hollarda realialarni ekvivalentsiz leksikaning komponenti sifatida talqin qilinganini ko'ramiz. Masalan T.V. Shatkov ekvivalentsiz leksikaga quyidagilarni kiritadi:

⁸ Umirov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2002.-B.256

1.Ismlar va milliy o'ziga xos realiyalar: devoriy gazeta, sovxoz, kolxoz.

2.Ekspressiv ottenkali milliy o'ziga xos so'zlar (очи, уста, домишко, домище)

3.Ko'chirma ma'noli boshqa til leksikasida uchramaydigan so'zlar (front(хозяйственный), tormozit (развитие) vaho.

1958-yilda G. V. Chernov realiyalarning terminlardan farqi haqida quyidagilarni ta'kidlaganidek“ Realiya o'zi vujudga kelgan til qobig'ida keng ishlatilishi, aksincha boshqa tillarga o'tganda begona so'z sifatida qabul qilinishi bilan xarakterlanadi”.

Realiyalar xorijiy aralashma (иноязычные вкрапления) lardan ham ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. S.Vlaxov va S. Florinlarning ta'biricha, xorijiy aralashma so'zlar muallif tomonidan asarda ishlatilgan xorijiy so'zlardir. Ular odatda begona til yozuvida transliteratsiya usulida beriladi va matn ichida yoki matn ostida izohlanadi. Muallif bunday xorijiy so'zlardan personaj xarakterini, obrazini ochuvchi stilistik vositalar sifatida foydalanadi va ko'rib turganimizdek realiyalardan farqli o'laroq tarjima qilinadi. Biroq tarjimonlar muallif uslubini aniqlash maqsadida ularni asliyatdagidek qoldirib matn ostida izohlaydilar. Shunday realiyalar mavjudki, ularni bir paytning o'zid ham realiya ham termin deb atash mumkin, xatto “termin-realiya” degan atama ham mavjud. Biroq ular o'rtasida ma'lum ma'noda farqlar ham mavjud. Masalan realiya ham ekvivalentsiz leksika hisoblansada, termin kabi tarjima tilida har qanday kontekst ichida izohlanavermaydi. Masalan уикент, grin-xoll terminlari o'zlashtirma so'zlar sifatida “damolish, xordiq” “tomoshaxona, o'yinxona” so'zlari bilan izohlanishi mumkin. Termin milliy, tarixiy, maxalliy bo'yoqdorlikka ega emas va odatda nominativ funksiyani bajaradi. Realiyalar esa maxalliy, milliy koloritni o'zida aks ettirib badiiy ifoda vositasi sifatida ham foydalaniladigan bir xalq tiliga xos so'zdir. Termindan esa ma'lum bir millatga mansublikni talab qilish mumkin emas. U ifodalagan predmet yoki tushuncha turli aloqalar vositasida boshqa tillarga osongina o'tishi mumkin.

Realialar va ularni tarjimada berilishi o'zbek olimlari tomonidan ham atroflicha o'rganilgan soha. Tarjimashunoslikning umumiy masalalariga bag'ishlangan G'.Salomovning qator tadqiqotlarida, R. Doniyorovning shu masalaga oid maqolasida, YU.Po'latovning maqola va nomzodlik dissertatsiyasida ko'proq realialarning rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlaridagi leksik, stilistik funksiyasini o'rganishga asosiy e'tibor berilgan bo'lib, realialarning tarjimada berilishi maxsus o'rganilmagan. Bu masala ilk bora K.Musaevning «Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning stilistik muammolari nomli nomzodlik dissertatsiyasida qisman o'rganildi. 1979yilda o'zbek olimasi R.Fayzullaeva realialarni nemischadan o'zbekchaga, o'zbekchadan nemis tiliga o'girishdagi o'ziga xosliklarga qo'l urgan ilk tadqiqotchi bo'ldi. Shuningdek milliy realialar ham mavjud. Milliy realialar odatda faqat asliyat tiliga mansub bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan inglizcha *heath* – *xech narsa o'smaydigan botqoqlik joyi*, *ale* – *shaffof ingliz pivosini*, *ispancha galanos* – *akulaning birturini*, *karakatitsa*, *umbritsa* – *dengiz baliqlarini*, *nemischa bossh* – *fransuzcha fiacre* – ot bilan tortiladigan yengil aravasimon transport vositasini anglatadi. Shu jixatlari bilan ular bir millat yashaydigan territoriyaning ma'lum bir bo'lagida yashovchi aholining o'ziga xos tushunchasi bo'lsa, ular lokal, mikro lokal, xarakterga ega bo'ladilar.

Aynan mana shunday realialar tarjimonda asliyat tilidagi bu tushunchani teran anglab olishlikni, shu joyga xos milliy, tarixiy, ijtimoiy siyosiy voqeliklardan yaxshi xabardor bo'lishlikni talab qiladi.

“Realialar ma'lum xalqqa mansub bir ma'noli so'z va iboralar bo'lib, shu xalq tilidagi predmetlarni, tushuncha va xodisa nomlarini ifodalaydi. Ular shu xalq tushunchasidagi geografik, etnografik, adabiy, material va ma'naviy hayotiga oid, shuningdek madaniy-maishiy, ijtimoiy-tarixiy tushunchalarni ifodalaydi.”

Ilmiy adabiyotlarda bir millatga mansub bo'lgan realialarning yoki umuman xorijiy so'zlarning o'zga tillarga ko'chib qolishi birgina adabiy aloqalarning, ayniqsa, tarjimaning rivojlanishiga bog'liq emas. Bu xalqaro aloqalarning, siyosiy-tarixiy, madaniy voqea va xodisalarning o'zga xalqlar dunyo

qarashiga ta'siri bilan ham bog'liq. Aynan shu tufayli masalan rustili orqali o'zbek tiliga, siyosatga, dinga, iqtisodga, fanga oid juda ko'plab xorijiy so'zlar, realiyalar singib ketgan. Bu o'rinda xorijiy adabiyotlarning tarjimasi orqali o'zbek kitobxonlariga ko'pincha tushunarli bo'lmagan, boshqa millatlarning turmushiga, dunyo qarashiga xos bo'lgan ko'plab tushunchalarni ifodalovchi realiyalar kirib kelayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Shunday qilib, tarjima shunoslikda ham realiyalar tarjimasi o'ziga xos yo'nalishi sifatida shakllana boshladi. Realiyalar tarjimasida tarjimonlar odatda ikki xil qiyinchilikkaduch kelishadi.⁹

1. Tarjima qilinayotgan tilda xorijiy tilda berilgan realiyaga mos keladigan ekvivalentning mavjud emasligi ;

2. Asliyat tilidagi realiya ifodalagan ma'no, shu millatga xos milliy, tarixiy koloritni tarjima qilinayotgan tilda to'laligicha ifodalashning murakkabligi ;

Shu nuqtai nazardan realiyalar tarjimasida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Allaqachon internatsionallashtirilgan realiyalar. Tarjimonlar ularni o'z holicha tarjimasiz qoldirishi mumkin.

2. Faqat ma'lum bir regionga, ma'lum bir millatga xos bo'lgan realiyalar.

Ular shu millatga xos bo'lgan tushunchalarnigina ifodalab keladiki, agar tarjimon bunday o'ziga xoslikni tushunmay, uni boshqa ma'no ifodalovchi so'z bilan o'girib qo'ysa, asarning milliy koloritiga, so'z ifodalagan ma'noning o'ziga xosligiga putur yetkazgan bo'ladi. Bunday hollarda realiyalar tarjimada xorijiy tilda berilib matn ostida iqtibosda izohlanadi yoki ona tilida qabul qilingan shaklda keltirilib matn ichida yoki matn ostida izoh beriladi.

3. Ayrim tarjimonlar realiyalarni matn ichida o'zicha qoldirib, jumla konteksti ichida uning izohini keltirishadi.

Internatsional realiyalar ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli boshqa tillarga o'tib qolgan so'zlarni ifodalaydi. Ular bunday holda ham milliy, maxalliy koloritlarini saqlab qolishligi bilan xarakterlanadi. Masalan, inglizcha cowboy–aslida «otliq bola» degan ma'noni anglatadi. Xozirgi paytda bu so'zlar ko'pgina

⁹ Raxmatullaev SH. O'zbek tilining izoxli frazeologik lug'ati. O'qituvchi nashriyoti. 1978

tillarga «kovboy» shaklida o'tib, «qo'rquv bilmas», «avant yurist»- «sarguzasht ishqibozi» sifatida o'tgan. Ispancha «sombbrero» - oddiy shlyapa, bosh kiyimini ifodalovchi lokal realiya va u bizning tilimizga «girdlari keng shlyapa» ma'nosida o'tib milliylashgan. Bolgar olimlari zamonaviy realiyalarni tasnif qilar ekanlar, ularni tanish va notanish realiyalarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi.

Darhaqiqat iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar tufayli tilimizga kirib kelgan juda ko'p inglizcha, ruscha, fransuzcha va xokazo realiyalar allaqachon o'zlashtirilgan so'zlarga, lug'at tarkibimizdan mustahkam o'rin olgan so'zlarga aylanib qolgan. Masalan: Inglizcha -ser, miss, gudbay, xello: Nemischa - gerr, biznes, biznesmen:

Fransuzcha -bonjur, madam, madmazel, fiakr, pamidor, kupe, fermer: Ruscha - soldat, kurtka, stakan, prujina, odeyal kabi so'zlar barcha o'zbeklarga tushunarli bo'lgan tanish leksikaga aylanib ketgan. Vaxolanki, yaqindan beri tilimizga kirib kelgandilar, menejer, marketing, grinxol, uikend va xokazo so'zlar notanish so'zlar sifatida barchaga tushunarli bo'lmasligim mumkin.

Realialardan ko'proq atamalarga (terminlarga) yaqin turuvchi dengizchilikka, baliqchilikka oid lokal xarakterga ega bu so'zlarni asliyatdan rus tiliga 1) traskripsiya va transliteratsiya 2) rus tilida mavjud ana shunday ma'noli so'zlar orqali tarjimada berilganligini ko'ramiz.

milliy realialarni tarjimada ifodalanishini o'rganish birinchidan badiiy asardagi milliy o'ziga xosliklarni ifodalash usullarini aniqlab tarjimonlar uchun amaliy, nazariy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi, ikkinchidan, bilvosita va bevosita tarjima jarayonida qo'lga kiritilgan boy tajribalarni umumlashtirishga, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab badiiy asarning g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglanishiga olib keladi.

Realialarni tarjimada ifodalagan stilistik funksiyasini to'g'ri ifodalashning muxim shartlaridan biri kontekstni to'g'ri tushunishdir. Chunki, realiyalar kontekstdagi funksiyasiga ko'ra turlicha stilistik ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan inglizcha "fathom" - ruscha «morskaya sajen» so'zini o'zbekchaga «dengiz sarjini» deb to'g'ri berib, tarjimon iqtibosda «dengiz

sarjiniga» iqtibos bermasdan, balkim «sarjin» soʻziga iqtibos bergan va sarjin va dengiz sarjinlarining uzunlik oʻlchovlari farqli ekanligiga eʼtibor bermagan tarjimon kitobxonga notoʻgʻri tasavvur uygʻotgan. Asar rustilidan oʻgirilganligi uchun, yoki asar tarjima qilingan yillar rus tilining mavqei juda baland boʻlganligi uchun juda koʻp soʻzlarning oʻzbekcha muqobillari mavjud boʻlgani xolda, ularning ruscha variantlari ishlatilganligiga guvoh boʻlamiz:

1. vilka –sanchqi
2. salfetka – qoʻl sochiq,
3. kolonka –suvoʻtkazgich
4. kvartal– daxa,maxalla
5. kurtka – issiqkiyim,poʻstin
6. komanda –jamoʻa apteka–dorixona
7. programma–dastur kofe–qaxva
8. morojennoe –muzqaymoq taverna yemakxona,oshxona
9. sutka – bir kecha- kunduz tormoz –toʻxtatgich
- 10.lampa –chiroq gruppa–gurux
- 11.sudya – xakam chayka–dengiz qushi,
- 12.rak–saraton kasalligi stul–kursi

Bu xol oʻzbek adabiy tili meyorlarining buzilishiga,tilni ataylab xorijiy soʻzlar bilan toʻntarishga urinish deb baholanishi mumkin. Matn tarjimasida oʻzbek adabiy tiliga butunlay singib ketgan,oʻzbekcha funksional ekvivalentlari mavjud boʻlmagan, tarjimasiz ishlatilgan *prujina, pressor, periskop, amalgam, tros, korpus, chempion, motor, bochka, metal, konserva, stakan, samolyot, fonar* kabi ruschadan oʻzlashtirilgan soʻzlarga xam duch kelamizki,ular inglizcha qanday ifodalanishiga qaramasdan, tarjimon ularni shu holicha qoldirishga majbur. Ular oʻrniga yangi soʻz–neologizm yasash, yoki izohlash usuli ham jumla ravonligiga, ifodadorligiga ham putur yetkazgan boʻlardi.

Milliy realiyalarni tarjimada berishning eng samarador usuli transkripsiya va transliteratsiya boʻlib,u originaldagi xos soʻzni toʻliqroq ifodalash imkonini beradi.Transliteratsiya usulidan odatda originaldagi milliy oʻziga xos tushuncha

ifodalaydigan ma'no tarjima tilida mavjud bo'lmagan xollarda foydalanadi. Masalan, dengizchilikka oid *rumpel, machta, shkot, gavan, bort, biteng, vaxtakabi, baliqchilikka oid marlin, sardin, makrel, karakatitsa, bonita, albakore, tunets, umbritsa, mako, galano* kabi so'zlarning barchasi rustili orqali o'zbek tiliga xam kirib kelganki, o'zbek tilida ularga mos ekvivalentlar mavjud bo'lmaganligi sababli, tarjimon ularni transliteratsiya usulida berishga, matn ostida izoh berishga majbur. Ayrim olimlarning bunday so'zlarni internatsionallashtirgan leksika deb atab, ular tarjima tili boyligini oshirishga xizmat qilishligini alohida ta'kidlaydilar. Realialarning aniq ta'rifi, ularning «atama»lardan farqi, boshqa tillarga tarjima qilishdagi o'ziga xosliklar, ular ifodalaydigan leksik, semantik, stilistik funksiyalar xaligacha tilshunos va tarjimon olimlar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinayapti. Realialar ifodalagan milliy o'ziga xoslik, uni tarjimalarda berish masalasi rus va o'zbek olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlariga mavzu bo'lgan. Realia maxalliy, milliy koloritni ifodalovchi so'z sifatida va ularni tarjimalarda berish ilk bora o'tgan asrning 50 yillarida rus olimlarining diqqat e'tiborini tortib boshladi.

II BOB. XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI”

ASARIDA AFG'ON MADANIYATI TASVIRI

2.1 Xolid Husayniyning”Ming quyosh shu’lasi” asarida afg’on madaniyatining ochilishi

Ming quyosh shu’lasi Afg'onistondagi so'nggi o'ttiz yil - Sovet hujumi davridan to Tolibon hukmronligigacha, Tolibonni qayta tiklashdan so'ng, bu mamlakatning zo'ravonliklari, qo'rquvlari, umidlari va e'tiqodlarini keltirib chiqaradigan o'zgaruvchan voqealarga qarshi hayratomuz bir voqea. Asar dunyo yuzini ko'rgach, afg'on ayollari butun dunyo bo'ylab birdan baland ko'rinishga ega bo'ldi. O'shandan beri, G'arb matbuotida va ayniqsa, AQSh axborot mediasida afg'on ayollarining vakili, olimlar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu bo'yicha tegishli adabiyotlarning ko'pchiligi G'arb ommaviy axborot vositalarida afg'on ayollarining bosqinchilikni urush va zo'ravonlikning passiv qurboni sifatida ko'rsatganligi, faqat G'arbning harbiy aralashuvi bilan ozod bo'lishiga ishora qiladi.

Asarni o'qirkanmiz, Afg'onistonning geografik joylashuvi, tabiati, millati va mamlakatning, afg'on jamiyatining madaniyati, tili, urf-odatlarini bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Qo'shni mamlakatlardan farqli o'laroq, Afg'oniston, asrlar davomida emas, balki o'nlab yillar davomida yuz bergan jamiyatdagi zo'ravonlik, uning tarkibiy tuzilmalari va tartibsizliklar sababli hosil bo'lgan parokandalik afg'on odamlarining orzu umidlarini yo'q qilinishiga olib kelganligi ko'rinib turadi.

Mamlakat uchta mintaqada joylashgan: shimoliy tekisliklari, markaziy diqqatga sazovor joylar va janubiy tekisliklar. Shimoliy tekisliklar ko'pchiligi ilgari qishloq xo'jaligi uchun ishlatilgan, ammo qurg'oqchilik va urushlar natijasida, tekisliklarning aksariyati vayron qilingan. Shunday qilib, Afg'oniston, asosan, geografik joylashuvi va urushlar tarixi tufayli uchinchi dunyo mamlakatlari deb qabul qilingan.

Asarda Afg'onistonning Qobul shahrining shahar markazlari tasvirlangan. Ushbu keltirilgan misolda Afg'onistonning Qobul ko'chalari, markaziy shaharlari

bilan chekka-chekka qishloqlaridagi ahvol qanchalik farqlanishi Nananing chekka qishloqdagi uyi va Maryamning otasi turadigan hudud tas'virida namoyon bo'ladi.

It was Muhsin, Jalil's eldest son by his first wife, Khadija, who suggested the clearing. It was on the outskirts of Gul Daman. To get to it, one took a rutted, uphill dirt track that branched off the main road between Herat and Gul Daman. The track was flanked on either side by knee-high grass and speckles of white and bright yellow flowers. The track snaked uphill and led to a flat field where poplars and cottonwoods soared and wild bushes grew in clusters. From up there, one could make out the tips of the rusted blades of Gul Daman's windmill, on the left, and, on the right, all of Herat spread below. The path ended perpendicular to a wide, trout-filled stream, which rolled down from the Safid-koh mountains surrounding Gul Daman. Two hundred yards upstream, toward the mountains, there was a circular grove of weeping willow trees. In the center, in the shade of the willows, was the clearing.

Yuqorida keltirilgan misolda afg'on jamiyatining chekka qishloqlarining tabiati tasvirlangan. Maryam turadigan joy Gul Daman shaharining chekkasida kichkinagina changalzor, baland o'tlar va tepaliklar bilan o'ralgan pastlikdagi qishloq edi. Qizg'aldoqlar olovdek tovlanib atrofda baland o'simliklar yovvoyi qoyalar bilan o'ralgan momin paxtalar uchib artofga tarqalgan. Tog'lar va tepaliklar orasida baland tol daraxtlari shamolda o'ynoqlab tabiatning go'zal qiyosini tasvirlagan. Maryamning onasi ushbu uyni kalamushning uyasi deb ta'riflaydi. Chunki u yerda Maryamlarning uylaridan boshqa uy ham yo'q edi. Ular shaharning chekkasida yolg'iz yashardilar.

Ammo Jalilning turar joyi shahar markazi hisoblanib, u yerda qadimiy minoralar, mashxur bog'lar, bug'doyzorlar bor edi. Shuningdek Jalil shaharning boylaridan hisoblanib, uning shaxsiy kinoteatri ham bor edi. Hashamatli binolar qad rostlagan. Bundan tashqari uning gilam do'konlar, kiyim-kechaklar do'konlari, shuningdek turli katta avtomobillar ham bor edi. Ya'ni Jalil shahar markazida aholi gavjum joyda yashardi.

In addition to the cinema, Jalil owned land in Karokh, land in Farah, three carpet stores, a clothing shop, and a black 1956 Buick Roadmaster. He was one of Herat's best connected men, friend of the mayor and the provincial governor. He had a cook, a driver, and three housekeepers.

Asarni o'qir ekanimiz, afg'on madaniyatida qizlarning oilada tarbiyalanishi, qizlarga oilada berilgan tarbiyaga yoshligidan uy yumushlarini qanday bajarishni o'rgatishgani shu bilan birga qizlarga yoshligidan oilada ta'lim-tarbiya, odob-axloq bilan birga uy yumushlari ham o'rgatilib borilgan. Afg'onlarning milliy taomlarini tayyorlashni o'rgatish milliylikning bir belgisidir.

In the mornings, they awoke to the distant bleating of sheep and the high-pitched toot of a flute as Gul Daman's shepherds led their flock to graze on the grassy hillside. Mariam and Nana milked the goats, fed the hens, and collected eggs. They made bread together. Nana showed her how to knead dough, how to kindle the tandoor and slap the flattened dough onto its inner walls. Nana taught her to sew too, and to cook rice and all the different toppings: *shalqam* stew with turnip, spinach *sabzi*, cauliflower with ginger.

